

Xiva xonlari arxivining tarixiy ahamiyati

**Abdurahmonov Alisher, Tarixshunoslik va tarixiy tadqiqot
metodlari, II kurs magistranti.**

Annotatsiya

Mazkur maqola Xiva xonlari arxivining tarixiy ahamiyati masalasiga bag'ishlangan va ushbu maqolada xon arxivining tarixi, undagi turkumlar, o'rganilish tarixshunoslik masalasi bayon qilingan. Chunki, tarixni har tomonlama mukammal va aniq bayon qilishda arxiv hujjatlari har doim birlamchi manba hisoblanib kelinadi. Ayniqsa, Xiva xonlari arxivi o'zining boy merosiy yodgorliklari bilan bugungi yosh avlodni ham qiziqtirib kelishi hech shubhasizdir. O'tgan asrning 60 yillaridayoq ko'pgina sovet tarixchilarining o'zbek davlatchiligi tarixi rivoyat va afsonalar asosida tuzilgan degan fikrlariga rad etib bo'lmay dalillar bilan aslida haqiqat qanday bo'lgan ekanligini bayon qilgan manbalar bu - Xiva xonligi arxiv hujjatlari ekanligi shubhasizdir.

O'tmishi «Avesto» dan ma'lum qadimiy Xorazm o'zining boy moddiy va ma'naviy madaniyati bilan dunyo xalqlari e'tiborida bo'lgan. Xorazmning ko'hna tarixi o'ziga xos madaniyati moddiy va ma'naviy hayoti hamda buyuk daholari faoliyati va ularning jahon ilmiga qo'shgan hissasi tahsinga loyiqdir. Xorazm tarixi bo'yicha shu davrgacha ko'plab tadqiqotchilar, olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan, ammo hamma davrda ham o'rganilayotgan mavzuga holisona yondashilmagan. Bunga qator sabablar mavjud bo'lgan. Shunday sabablardan biri Xiva xonligi tarixi bo'yicha yetarli ma'lumotlar bo'lmagan, mavjud tarixiy dalillarni ham yetkazib beruvchi haqiqiy yurt jonkuyarilari kam edi.

Albatta, rus sharqshunosligida Xiva xonligining siyosiy tarixi, ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlari, ma'muriy va davlat tuzilishi va boshqa masalalar xolisona o'rganilmadi. Rus sharqshunoslari asarlarida bu masala bo'yicha bayon etilgan fikrlariga e'tiroz bildirish mumkin. Ayniqsa G. Danilevskiy, N.Muravyov,

A.Sobolev, N.Veselovskiy asarlarida Xiva xoni saroy amaldorlari ta'sirida bo'lib, o'zining mustaqil fikri yo'q, ertadan kechgacha aysh-ishrat bilan shug'ullangan shaxs sifatida ko'rsatilgan, xonlikda ma'muriy bo'linish bo'lmagan, saroyda hech qanday kengash faoliyat ko'rsatmagan, xonlikda harbiy-feodal tuzum qaror topgan, degan salbiy fikrlarni bayon qilganlar. Ba'zida esa yuqoridagi tadqiqotchilarni asarlarida hayratlanarli fikrlar duch kelishimiz mumkin. N.Veselovskiy shunday yozadi: "Birinchi galda zarur bo'lgan oziq-ovqat va kiyim-kechak tanqisligi faqat xonlik xalqi uchungina emas, balki xonning o'zi uchun ham sezilarli bo'lgan. Xonning arg'umog'lari, ko'pincha, kecha-kunduz yemsiz qolib ketgan, - deydi Grushin, - xon hatto o'z xotinlariga ham nonni o'lchab berardi: xon saroyida har kuni uch pudsaro chin so'ki, bir pud yog' va yarim pud kunjut moyi iste'mol qilinadi. Saroyda choyni, shunda ham qalmiq yoki tosh choyni, faqat xonning o'zigina ichadi, haftada esa ikki marta qandli choyichadi"¹. Bu kabi asossiz va mantiqsiz fikrlarga to'g'ri va holisona javob faqatgina Xiva arxiv hujjatlarini o'rganish orqali berilish mumkin edi. Lekin, Xiva xonligi ruslar tomonidan 1873 yilda istilo qilingach, undagi barcha arxiv San-Peterburgga jo'natilib, ko'p yillar izziz yo'qolib, hech kim tomonidan o'rganilmagan. Va 1960 yilda M.Y.Yo'ldoshev tahriri ostida "XIX asr Xiva davlat hujjatlari" nashr qilinadi. U ilmiy izlanishlarini olib borgan davrlargacha XVIII-XIX asrlar xonliklar davri o'zbek tarixshunosligida juda kam tadqiq qilingan davr hisoblanardi.

Akademik V.V. Bartold yuqoridagi fikr bo'yicha shunday yozgan edi, "XVIII- XIX asrlardagi O'rta Osiyo xonliklarining tarixi Sharq tarixining eng kam ishlangan tarmoqlari qatoriga kiradi"² M. Yo'ldoshevning o'zi esa bu masalaga munosabat bildirib shunday yozadi, "O'rta Osiyo tarixiga doir ko'pgina muhim masalalarning tuzuk ishlanmaganligiga sabab shuki, ba'zi tadqiqotchilar o'z asarlarida jiddiy xatolarga, ideologik chalkashliklarga yo'l qo'yomoqdalar, tarixiy

¹ Н.И. Веселовский Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб, 1877, – 327-bet.

² В.В Бартольд. События перед Хивинским походом 1873 г., по рассказу Хивинского историка // Кауфманский сборник. – М., 1910. – С. 1.

haqiqatni buzib ko'rsatmoqdalar. Birinchidan, O'zbekistonning o'tmishidagi xo'jalik – siyosiy hayotiga doir hujjat, fakt va materiallarning yo'qligi, ikkinchidan, turli manbalardan yetarli ravishda foydalanilmayotganligi tufayli shunday ahvol sodir bo'lmoqda. Aniq faktlar bo'lmaganligi sababli O'rta Osiyodagi tarixiy voqealarning rivojlanib borishini to'g'ri tushunib, to'la yoritib beraolmaydilar. Ularning ba'zilar tarixni ataylab soxtalashtiradilar”³. Shu o'rinda Xiva xonlari arxivini tarixiga biroz nazar tashlash lozim chunki, 1873 yilda ruslar Xivani istilo qilib, Xivada musodara qilingan qo'lyozmalarning soni to'g'risida A.L. Kunning o'zi bayonotnomada quyidagi ma'lumotlarni xabar qilgan: “Xivaga ekspeditsiya vaqtida men quyidagi ilmiy hujjatlarni to'pladim: xon saroyini musodara qilish vaqtida sharq qo'lyozmalaridan iborat 300 kitob to'plandi, shulardan 129 tasi 140 tomndan iborat tarixiy qo'lyozmalar, 30 tomndan iborat sharq shoirlarining devonlari, 50 tomndan iborat 40 ta huquqiy va diniy asarlardir. Bundan tashqari, 18 tacha “Quron” va 50 ta dars kitoblari ham to'plandi”⁴. Xiva xonlarining tarixchisi Bayoniy ham ruslar Xiva saraoyini musodara qilganida 300 ta kitobni olib ketganliklarini qayd qilib o'tadi⁵. Lekin yuqoridagi hujjatlar bilan birgalikda Xiva xonligi arxivida qo'lyozmalar ham to'plangan. Bu hujjatlar ikki guruhga bo'linib xonlikning daromadlari va xarajatlariga doir daftarlar hamda bir qancha vaqf va mulk hujjatlarini, ikkinchi guruhga xatlar va diplomatik yozishmalarni kiritish mumkin. Daftarlar orasida pul soliqlariga doir yozuvlar, (salg'ut), zakot daftarlari va Matmurod devonbegrining xon xarajatlari to'g'risida hisobotlari bor. So'ngra shu hujjatlar orasida Buxoroda, G'azalida, Istambulda va boshqa joylarda savdo ishlari bilan yashab turgan xivaliklarning xonga yuborgan iltimosnomalari, nizolarni hal qilib berish to'g'risida yozilgan imkoniyatnomalari, biror mansab berish to'g'risida iltimosnomalari va shu kabilar bor. Diplomatik hujjatlar orasida Ost-Indiya general-gubernatorlari Narskbrukning xati, Turkiya

³ М. Йўлдошев, XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. – Т.: Ўздавнашр, 1960. – 403 б.

⁴ А.Л. Кун Доходы Хивинского ханства // ТВ. 1873. – № 32.

⁵ М. Йўлдошев, Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Т.: Ўздавнашр, 1959. 6.8.

sultoning xatlari va farmonlari, rus elchisi Danilevskiy bilan Xiva xoni o'rtasida tuzilgan ahdnoma hamda Turkiston general-gubernatorlari tomonidan xonga yuborilgan bir necha maktub bor bo'lsa-da ular soni hech qayerda ko'rsatilmagan.

Xiva xonlarining XIX asrga oid arxividagi ba'zi hujjatlarning mazmuni P.P. Ivanov⁶ tomonidan birinchi daf'a e'lon qilinishi sovet sharqshunoslari uchun Xivaning chinakam tarixini to'laroq ochib berishga hamda XIX asrdagi O'rta Osiyoning tarixiy xaritasidagi ko'pgina bo'sh joylarni to'ldirishga imkon bergan. Xiva xonligining ko'pgina hujjatlari SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining fondlaridan topiladi. 1948 yilda esa Xiva arxivining hech kimga ma'lum bo'lmagan ko'pgina noyob daftarlari aniqlangan.. Bular xalq kutubxonasida P.P. Ivanov tomonidan topilgan majmuani ancha to'ldiradi va uni yanada qimmatliroq qiladi.

Xiva xonlari arxiv hujjatlarini keng tadqiq qilish, ayniqsa saroy va uni amaldorlari bilan bog'liq jihatlarni chuqur o'rganish lozim bo'lgan. Chunki, bu hujjatlar xon byudjeti qanday sarflanganligini aniq qilib ko'rsatgan, buni sababi shundaki daftarlarga arzimagan mayda xarajatlar ham yozib borilgan; xuddi shu hol bu hujjatlarning ilmiy qiymatini oshirish bilan birga, ularni muhim tarixiy manbaga aylantirgan. Saroy xarajatlariga doir dalillarni sinchiklab o'rganish orqali biz saroy turmushini, xon va boshliq hukmron tabaqani axloqi va saroy ziyofatlari haqida ma'lumot olish mumkin bo'lgan. Xarajat daftarlariga yozilgan ma'lumotlar tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi natijasida saroy va butun jamiyat hayotida yuz bergan o'zgarishlarni bilib olishimizga imkon beradi. Va shu bilan birgalikda daftarlardan biz yuqoridagi xarajatlardan tashqari, boshqa maqsadlar uchun qilingan, o'ziga xos xarajatlar to'g'risida ham ma'lumot olishimiz mumkin edi. Masalan, Xivada o'sha davrda hukumat orden yoki medallari bo'lmagan. O'zini ko'rsatgan harbiy va amaldorlarga mukofot tariqasida pul, yer-suv, chorva yoki qimmatbaho buyumlar berilar edi.

⁶П.П. Иванов Архив хивинских ханов XIX в. Исслед. и описание документов с ист. введением./Новые источники для истории народов Сред. Азии. – Л.: ГПБ, 1940. – 290 с.

Shuningdek, Xiva xonlari arxivi tadqiq qilinganimizda ba'zi qiziq faktlarga duch keldik, "Xivada o'ldirilgan har bir dushman uchun pul mukofati berish odati bo'lgan. Lekin, dalil sifatida dushmaning boshini, kesilgan qulog'ini yoki terisini olib kelib ko'rsatishi shart bo'lgan."⁷

Eng dastlabki arxiv hujjatlariga ko'ra, xonlikda xo'jalikning natural shakli ustun turganligi ma'lum bo'ladi. Xonlik uchun bajarilgan turli ishlar va qilingan xizmatlar uchun g'alla va boshqa shu kabi mahsulotlar bilan haq to'langan. Va keyingi hujjatlarda xonlikdagi iqtisodiy o'zgarishlar yuz berishi munosabati bilan pul xarajatlarga o'tila boshlangan. Bu hodisa 1855 yillarda yuz berganligi aniqlangan.

Arxiv hujjatlari faqat saroydagi ichki hayotni to'liq va har tomonlama ko'rsatibgina qolmay, ayni vaqtda Xiva xonligidagi xalq ommasining ahvolini ham to'la-to'kis aks ettirgan. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra Xiva xonligining yagona rasmiy markazlashgan arxivi XIX asrda vujudgan. Arxiv daftarlaridagi yozuvlarda asosan yerdan olinadigan soliqlar va qozilar tomonidan chiqarilgan turli hukmlar aks etgan. XIX asrdan boshlab arxiv hujjatlarini saqlanishiga alohida e'tibor bilan qarala boshlangan. Tarixchilarning ma'lumotlariga ko'ra, saroydagi arxiv hujjatlari xazina bilan bir qatorda alohida binoda juda ehtiyotkorlik bilan mahfiy holda saqlangan. Bir joydan ikkinchi joyga olib borish uchun mo'ljallangan daftarlarga pishiq muqova qilingan. Xonlikning mahfiy xarajatlari yozilgan, faqat saroyning o'zidagina saqlanadigan daftarlarning yuzlariga oddiy karton qo'yilgan. Ammo, muqovalari pishiq ishlangan va yaxshi saqlangan daftarlar bo'lsada ularni bemalol o'qish ancha murakkab hisoblanadi. Ko'pgina hujjatlarning yozilgan yili hamda kim tomonidan yozilganligi, kimga tegishli ekanligi ham ma'lum emas.

Shuningdek, arxiv hujjatlarining tili, xati va uslubi o'ziga xos xususiyatga ega, chunki bu hujjatlar chet kishilar uchun emas, balki kichik bir guruh uchun yozilgan. Ba'zida bu hujjatlar bilan tanishilganda, daftarlar mazmunini idora

⁷ M. Yo'ldoshev O'sha asar. 34-b.

ishlaridan chetda bo'lgan kishilar uchun sir saqlangan degan tushuncha paydo bo'lishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, A.L. Kun ham 1873 yilda , “Bundan (ya'ni arxiv daftarlaridan) ham chalkashroq narsani tasavvur qilish qiyin... boshqa devonlardan bu hujjatlarda nima yozilganligini o'qib tushuntirib berishni iltimos qilganimizda, ular ham tushuntirib bera olmadilar”⁸.

Xiva xonligini birinchi marta tekshirgan va ilmiy jamoatchilik fikrini unga jalb qilgan P.P. Ivanov o'zi topgan arxiv daftarlarini tartibga solib, ularning mazmunini qisqacha bayon qilib bergan. Lekin, ba'zi sabablarga ko'ra u o'z ishini oxirigacha yakunlay olmaydi. Shunga qaramay uning ishini M. Yo'ldoshev matonat va sabot bilan arxiv hujjatlarini tadqiq qilib ularni keng jamoatchilikka yetkazib beradi. Uning Xiva xonlari arxivi ustida olib borgan tadqiqotlari natijasida Sharq hayotida butun bir tarixiy davr yangicha yoritishga muvaffaq bo'lindi.

Chunki, tarixni har tomonlama mukammal va aniq bayon qilishda arxiv hujjatlari har doim birlamchi manba hisoblanib kelinadi. Ayniqsa, Xiva xonlari arxivi o'zining boy merosiy yodgorliklari bilan bugungi yosh avlodni ham qiziqtirib kelishi hech shubhasizdir. O'tgan asrning 60 yillaridayoq ko'pgina sovet tarixchilarining o'zbek davlatchiligi tarixi rivoyat va afsonalar asosida tuzilgan degan fikrlariga rad etib bo'lmas dalillar bilan aslida haqiqat qanday bo'lgan ekanligini bayon qilgan manbalar bu - Xiva xonligi arxiv hujjatlari ekanligi shubhasizdir. Xiva arxiv hujjatlarining ahamiyati shundaki, ularda o'zbek davlatchiligining bir qismi bo'lgan Xiva xonligi haqida ma'lumotlarni bus-butun, hech qanday bo'yoqlarsiz bayon etilganligidir. Bu hujjatlar o'rganilgan sa'yin tariximiz uchun noma'lum bo'lgan yangidan-yangi qirralar aks etib borilaveradi.

Adabiyotlar

⁸ Кун А.Л. Доходы Хивинского ханства // ТВ. 1873. – № 32.

1. Бартольд В.В. События перед Хивинским походом 1873 г., по рассказу Хивинского историка // Кауфманский сборник. – М., 1910. – С. 1.
2. Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб, 1877, – 327-бет.
3. Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в. Исслед. и описание документов с ист. введением. / Новые источники для истории народов Сред. Азии. – Л.: ГПБ, 1940. – 290 с.
4. Йўлдошев М. XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. – Т.: Ўздавнашр, 1960. – 403 б.
5. Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Т.: Ўздавнашр, 1959. б.8.
6. Кун А.Л. Доходы Хивинского ханства // ТВ. 1873. – № 32.